(3). Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
(4). Булаховский Л.А. Введение в языкознание. Москва, 1953.
(5). Веселовский А.Н. Историческая поэтика. Москва, "Высшая школа", 1989.
(6). Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент, "Фан", 1977.
(7). Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. Тошкент, "Ўқитувчи", 1995.
(8). Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. Москва, 1960.
(9). Маҳмудов Н. Тилнинг эстетик вазифаси ва синестетик метафоралар. "Ўзбек тили ва адабиёти", Тошкент, 2012, 3-son.
(10). Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент, "Мумтоз сўз", 2010.
(11). Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. Тошкент, "Фан", 1976.
(12). Потебня А. Эстетика и поэтика. Москва, 1976.
(13). Реформатский А.А. Введение в языковедение [5-е изд.. Москва, "Аспект Пресс", 1996.
(14). Ульман Ст. Семантические универсалии. Новое в лингвистике. Москва, "Радуга", 1970.
(15). Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. Тошкент, "Ўқитувчи", 1990.
(16). Қўзи Давлат. Кўнгил чиройи (ғазаллар ва мухаммаслар). Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999, 304 бет.

Sharipova Sadoqat Olimboy qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi; sharipovasadoqat16@gmail.com)

XORAZM VOHASI MAQOLLARIDA MEHNAT QADRIYATINING AKSIOLINGVISTIK IFODASI

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm vohasi maqollarida mehnat qadriyatining til orqali ifodalanish mexanizmlari aksiolingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Unda paremiologik birliklarning baholovchi semantikasi, ularning milliy aksiosferani shakllantirishdagi o'rni hamda Xorazm shevasiga xos maqollarda mehnatsevarlik va dangasalikning lingvistik oppozitsiyasi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *aksiolingvistika, paremiologiya, Xorazm shevasi, maqol, mehnat konsepti, baholash.*

АКСИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЦЕННОСТИ ТРУДА В ПОСЛОВИЦАХ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Аннотация. *В статье с позиций аксиолингвистического подхода анализируются механизмы языкового выражения ценности труда в пословицах Хорезмского оазиса. Рассматриваются оценочная семантика паремиологических единиц, их роль в формировании национальной аксиосферы, а также языковая оппозиция трудолюбия и лени, представленная в пословицах, характерных для хорезмского диалекта.*

Ключевые слова: *аксиолингвистика, паремиология, хорезмский диалект, пословица, концепт труда, оценка.*

AXIOLINGUISTIC EXPRESSION OF THE VALUE OF LABOR IN THE PROVERBS OF THE KHOREZM OASIS

Annotation. *This article analyzes the mechanisms by which the value of labor is linguistically expressed in the proverbs of the Khorazm oasis, employing an axiolinguistic approach. It examines the evaluative semantics of paremiological units, their role in shaping the national axiosphere, and the linguistic opposition between industriousness and laziness found in proverbs specific to the Khorazm dialect.*

Keywords: *axiolinguistics, paremiology, Khorezm dialect, proverb, concept of labor, evaluation.*

Kirish. Antropotsentrik tilshunoslikning rivojlanishi natijasida til faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab kognitiv tizim sifatida talqin qilinmoqda. Ana shu ilmiy paradigma doirasida shakllangan aksiolingvistika tilda mujassamlashgan qadriyatlar tizimini, baholash kategoriyasini hamda til egalarining milliy dunyoqarashini o'rganishga qaratilgan mustaqil yo'nalishdir.

Aksiolingvistik nuqtayi nazarga ko'ra, baho obyektiv borliqning bevosita aksi emas, balki insonning ijtimoiy tajribasi va madaniy ongidan o'tgan subyektiv munosabat mahsulidir. Shu sababli til birliklari, ayniqsa, maqollar, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni saqlovchi hamda avlodlarga uzatuvchi lingvomadaniy kod vazifasini bajaradi.

Xorazm vohasi maqollari voha aholisining mehnat madaniyati, turmush tarzi va axloqiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan noyob til qatlamidir. Ularni aksiolingvistik jihatdan tadqiq etish mehnat konsep-

tining milliy-madaniy mazmunini aniqlash hamda Xorazm aksiosferasining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Qadriyatlar nazariyasi, dastlab, falsafa va mantiq doirasida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik, uning lingvistik talqini XX asrning ikkinchi yarmida rivojlana boshladi. N.D.Arutyunova baholash kategoriyasini tilning semantik tuzilishi bilan bog‘liq hodisa sifatida izohlab, qiymat va modal munosabatlarning nutqdagi ifodasini tahlil qilgan [1]. A.A.Ivin esa aksiologiyani baholashning mantiqiy modeli sifatida asoslab, qiymat kategoriyalarining universal xususiyatlarini ko‘rsatgan [2].

Rus tilshunosligida S.G.Vorkachev, V.I.Karasik, G.Bagautdinova va G.Gibatova lingvoaksiologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqib, milliy madaniyat va til o‘rtasidagi aksiologik munosabatlarni yoritganlar. Ularning tadqiqotlarida aksiosfera, baholovchi semantika va qadriyat konseptlari markaziy tushunchalar sifatida talqin etiladi.

O‘zbek tilshunosligida antropotsentrik yo‘nalishning rivojlanishi bilan aksiologik tadqiqotlarga ham alohida e’tibor qaratildi. Sh.Safarov kognitiv tilshunoslik doirasida til va tafakkur munosabatlarini yoritgan bo‘lsa [3], J.Yoqubov, G‘.Qambarov, Z.Pardayev, S.Boymirzayeva hamda R.Madjidova baholash, aksiologik modallik va lingvomadaniy qadriyatlarning turli qatlamlarini tadqiq etdilar.

Paremiologiya sohasida T.Mirzayev, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, O.Madayev va B.Jo‘rayevalarning ilmiy ishlari o‘zbek maqollarining semantik, poetik va lingvokulturologik tabiatini yoritishga bag‘ishlangan. R.Madjidovaning o‘zbek va rus tillari materiallari asosidagi aksiologik tadqiqotlari [4] hamda G.Komilovaning maqollar lingvoaksiologiyasiga oid izlanishlari [5] mazkur yo‘nalishning metodologik asoslarini boyitdi. Biroq mavjud tadqiqotlarda Xorazm vohasi shevalariga mansub maqollar alohida hududiy aksiosfera sifatida maxsus o‘rganilmagan.

Metodologiya. Tadqiqot antropotsentrik va aksiolingvistik tamoyillarga asoslandi. Material sifatida “Xorazm shevalari maqol va iboralari qisqacha izohli lug‘ati”dagi mehnat mazmunidagi paremalar tanlab olindi [6]. Ularni tahlil qilishda tavsifiy, semantik, komponent tahlil, lingvomadaniy hamda aksiologik interpretatsiya metodlaridan foydalanildi.

Tahlilda maqollarning baholovchi semantikasi ikki asosiy qiymat maydoni asosida tasniflandi:

1) ijobiy qadriyatlar: mehnatsevarlik, harakatchanlik, mas’uliyat, halollik;

2) salbiy qadriyatlar: dangasalik, bekorchilik, loqaydlik, ish tanlash.

Mazkur oppozitsiya Xorazm vohasi xalqining mehnatga oid qadriyatlar tizimini aniqlash imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Xorazm vohasi maqollarida mehnat insonning axloqiy barkamolligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mehnatsevar shaxs ijobiy baholansa, dangasalik jamiyat tomonidan keskin qoralanadi.

Iš jaqmasa it baqmas (Ish yoqmasga it boqmas). Mazkur paremada *iš jaqmas* leksemasi salbiy aksiologik marker vazifasini bajaradi. Maqolning ichki semantik modeli “mehnatdan qochish → foydasizlik → ijtimoiy qoralash” zanjiri asosida qurilgan. “It baqmas” komponenti esa xalq tasavvurida eng sodda yumushni ham uddalay olmaydigan shaxs obrazini yaratadi. Demak, paremada baholash obyekti – dangasalik, baholash subyekti esa xalqning axloqiy ongidir.

Išjaqmasa iš bujursaŋ, ataŋ bärmägän aqlni bärädi (Ishyoqmasga ish buyursang, otang bermagan aqlni beradi). Bu maqolda mehnat tarbiyaviy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Kinoyaviy usul orqali dangasa kishining faqat mehnat jarayonidagina hayotiy tajriba orttirishi ifodalanadi. “Otang bermagan aql” birikmasi mehnatning insonni kamol toptiruvchi ma’naviy kuch ekanligini bildiruvchi metaforik bahodir. Paremaning pragmatik vazifasi yosh avlodni mas’uliyat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashdan iborat.

Išjaqmas iš säjlidi (Ishyoqmas ish saylaydi). Ushbu maqol Xorazm paremiologiyasida eng faol baholovchi birliklardan biridir. Unda mehnatsevar va dangasa shaxslar qarama-qarshi qo‘yiladi. Xalq ongida ishning og‘ir-yengilligini tanlash emas, balki har qanday halol mehnatni bajarish qadrlanadi. Shu bois “ish saylash” semasi salbiy aksiologik mazmunga ega bo‘lib, loqaydlik va mas’uliyatsizlikni anglatadi.

Köp otïrγan kötä jaqar (Ko‘p o‘tirgan ko‘tga yoqar). Xorazm shevasiga xos ushbu maqol xalqona yumor va emotsional ekspressivlik asosida yaratilgan. Somatik komponent (*ko‘t*) qo‘pol uslubiy vosita bo‘lishiga qaramay, uning vazifasi tinglovchiga kuchli ta’sir ko‘rsatishdir. Paremada uzoq muddat bekor o‘tirish jismoniy sustlik bilan bir qatorda, ma’naviy passivlik belgisi sifatida baholanadi. Demak, harakat ijobiy, harakatsizlik esa salbiy qadriyatdir.

Jatqan ökizä jem joq (Yotgan ho‘kizga yem yo‘q). Mazkur maqol dehqonchilik madaniyati negizida shakllangan bo‘lib, *ho‘kiz* mehnat timsoli sifatida konseptual ahamiyat kasb etadi. “Yotgan” sifati harakat-

sizlikni, “yem yo‘q” esa mehnatsiz rizq bo‘lmasligini bildiradi. Paremaning aksiologik modeli quyidagi konseptual zanjir orqali ifodalanadi: *Harakat → Mehnat → Rizq → Farovonlik,*

unga zid holda esa: *Harakatsizlik → Bekorchilik → Rizqsizlik.*

Bu model Xorazm xalqining iqtisodiy va axloqiy qarashlarida mehnatning markaziy qadriyat ekanligini tasdiqlaydi.

Mehnat konseptining aksiologik maydoni quyidagicha bo‘ladi:

Konseptual belgi	**Aksiologik qiymati**	**Paremiologik ifoda**
Mehnatsevarlik	Ijobiy	*Jatgan ökizä jem yoq*
Harakatchanlik	Ijobiy	*Köp oŧŕyan kötä jaqar*
Dangasalik	Salbiy	*Išjaqmasa it baqmas*
Ish tanlash	Salbiy	*Išjaqmas iš säjlidi*

Yuqoridagidan ham ko‘rinadiki, Xorazm aksiosferasida mehnat iqtisodiy faoliyatdan ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib, u shaxsning axloqiy qadr-qimmati va jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xorazm vohasi maqollarida mehnat voha aksiosferasining markaziy konseptlaridan biridir. *Išyaqmas*, *yatgan*, *iš säyläš* kabi leksik birliklar salbiy baholashni ifodalovchi aksiologik markerlar sifatida faol qo‘llanadi. Maqollar mehnatsevarlikni ijtimoiy me’yor, dangasalikni esa axloqiy nuqson sifatida baholovchi lingvomadaniy mexanizm vazifasini bajaradi.

Xorazm shevasiga xos maqollar hududiy qadriyatlar tizimini va xalqning mehnatga oid milliy dunyoqarashini o‘rganishda muhim paremiologik manba hisoblanadi. Aksiolingvistik yondashuv Xorazm vohasi maqollarida mujassam bo‘lgan mehnat konseptining baholovchi semantikasi hamda voha xalqining milliy aksiosferasini chuqurroq ochib berishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. М., “Наука”, 1988, 341 с.

(2). Ивин А.А. Современная аксиология: некоторые актуальные проблемы. Философский журнал, 2010, № 1 (4), с. 66–78.

(3). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

(4). Маджидова Р. Антропоцентрик мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида). Филол. фан. док. ... дисс. автореф., Фарғона, 2020.

(5). O‘zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili. Monografiya, Toshkent, “Bookmany print”. Sharipova Sadoqat Olimboy qizi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi; sharipova sadoqat16@gmail.com, 2023, 136-bet.

(6). Norboyeva Sh., Sadullayeva N., Atabayeva M. Xorazm shevalari maqol va iboralari qisqacha izohli lug‘ati. Urganch, “Xorazm”, 2022, 104-bet.

(7). Қамбаров Ғ.С. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): филол. фан. номз... дисс., Тошкент, 2008.

(8). Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent, 2019, 512-bet.

(9). Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий услубий қўлланилиши. Филол. фан. номз. … дисс. автореф., Тошкент, 2002.

(10). Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дисс. автореф., Самарқанд, 2019.

(11). Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. М., “Гнозис”, 2004, 390 с.

Alqarov Nazarbek Alisher o‘g‘li (Toshkent davlat Transport universiteti tadqiqotchisi;UDK 82.0:801.73:591)

ZOOPOETIKA ADABIYOTSHUNOSLIK PARADIGMASI SIFATIDA VA UNING ZAMONAVIY TALQIN TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Maqolada zoopoetikaning adabiyotshunoslikdagi maqomi, nazariy manbalari va zamonaviy talqin tamoyillari tahlil qilinadi. Yo‘nalishdagi to‘rt oqim – falsafiy-etik, poetik-formal, narratologik va kognitiv-semiotik yondashuvlar qiyoslanib, har birining tahliliy imkoniyati o‘zbek badiiy nasridan olingan aniq misollar asosida ko‘rsatiladi. Zoopoetik o‘qishning bosh sharti, ya’ni, hayvon obrazini ramzga aylantirmaslik talabi va antropomorfizm masalasi muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: zoopoetika, adabiy hayvon tadqiqotlari, paradigma, antropomorfizm, badiiy obraz, tanaviy tasvir, zoonim, o‘xshatish.*